

**O`ZBEKISTONDA MEVA - SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI
RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING O`ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Mannopova Muazzam Sultonbekovna

Farg`ona davlat universiteti,

Jahon va mintaqqa iqtisodiyoti kafedrasi katta o`qituvchisi.

**FEATURES OF THE DEVELOPMENT AND MANAGEMENT OF FRUIT
AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN**

Mannopova Muazzam Sultanbekona

Senior Lecturer, Department of World and Regional Economy,

Fergana State University.

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ И УПРАВЛЕНИЯ
ПЛОДООВОЩЕВОДЧЕСКИМИ КЛАСТЕРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Маннопова Муаззам Султонбековна

Ферганский государственный университет, ст.преп. кафедры

Мировой и региональной экономики

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotning qishloq xo`jaligi sohasida meva-sabzavotchilik klasterlarining tadbirkorlikni rivojlantirish sifatidagi ahamiyati, meva – sabzavot klasterlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tadbirkorlik, klaster, mintaqqa, rivojlanish, ishlab chiqarish, qayta ishslash, meva – sabzavotchilik, jahon bozori, xorijiy tajriba.

Qishloq xo`jaligi sanoatni xomashyo resurslari bilan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlaydigan eng muhim tarmoqlardan biridir. Qishloq xo`jaligi sohasi iqtisodiyotining rivojlanishi esa, aholi bandligi va daromadlari o`sishini ta`minlaydigan eng muhim sohalardan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda mehnat resurslarining 2-5 foizi, kam taraqqiy etgan aksariyat mamlakatlarda esa 90 foizgacha qishloq xo`jaligi tarmog`ida mehnat qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo`jalik ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha katta rol o`ynaydi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo`jaligining salmog`i rivojlanayotgan mamlakatlarda o`rtacha 22 foizni, rivojlangan mamlakatlarda 4 foizni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlarda yetishtirilayotgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining yarmidan ko`prog`i yetishtirilmoqda. BMT ekspertlari fikrlaricha, har yili oziq-ovqat muammosini yechish uchun uning hajmi 6 foiz oshirib borilishi talab etiladi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi sohasidagi tashkilotining (FAO) ma'lumotiga ko`ra, Yevropada quritilgan yong`oq va mevalar

savdosi 11 milliard yevroni, quritilgan sabzavotlar esa 8 milliard yevrodan ziyodni tashkil etdi. Vietnam kabi yangi ishtirokchilarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, to'g'ri strategiya asosida ish yuritilsa, yiliga 1 milliard yevrodan oshiq hajmdagi mahsulotni eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Asosan, qishloq xo'jaligi Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan bo'lib, uning hududida azal-azaldan insoniyat uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shu bilan birga uni zamon talablari, strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shuning uchun ham, respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirish, meva-sabzavot mahsylotlarini saqlash, qayta ishslash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar jadal syr'atlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, agrar sohada hosildorlik va mehnat ynymdorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilinib, ushbu xujjat qishloq xo'jaligini rivojlantirishda dastur amal bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligi bo'yicha ham aniq yo'nalishlar ko'rsatib o'tildi. Asosan, 2025 yilgacha mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini 100 milliard dollar, yillik eksportni 30 milliard dollarga etkazish maqsad qilinib, bu ko'rsatkichlarga erishish uchun qishloq xo'jaligi sohasida ham juda katta rezerv va imkoniyatlar majudligi ko'rsatilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirishga asos bo'ladigan meva-sabzavotchik bo'yicha eksportni tizimli tashkil qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar jadal syr'atlarda amalga oshirilmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston 114 mln. dollarlik meva va sabzavotlar eksport qilgan. O'zbekiston 2022 yilning dastlabki 2 oyida eng ko'p meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan davlatlar: Qozog'iston – 67,5 ming tonna, Rossiya – 29,5 ming tonna, Xitoy – 16,6 ming tonna, Qirg'iziston – 14 ming tonna, Afg'oniston – 6,8 ming tonna, Pokiston – 3,3 ming tonna, Ukraina – 3,3 ming tonna, Turkiya – 3,2 ming tonna, Eron – 2,5 ming tonna, Ozarbayjon – 2,4 ming tonna, Belarus Respublikasi – 2,2 ming tonna, Birlashgan Arab Amirliklari – 1,4 ming tonna, Germaniya – 553 tonna, AQSH – 386 tonnani tashkil qilgan. 2022 yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekiston qiymati qariyb 550 million dollarga teng bo'lgan 968 ming tonna meva va sabzavot eksport qildi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, 127 ming tonnaga ortgan. Jumladan, quritilgan meva va rezavorlar – 22,3 ming tonna tonnani, sabzavotlar – 607 ming tonnani, karam – 130 ming tonnani, pomidor – 57,6 ming tonnani, uzum – 23,2 ming tonnani, mayiz – 41,4 ming tonnani, eryong'oq – 12,3 ming tonnani, tarvuz-qovun – 98,1 ming tonnani tashkil etgan.

Bugungi kunda respublikamizda 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirilib, dunyoning 66 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda. SHyningdek, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik tarmog‘i ham katta salohiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonda yiliga 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot etishtirilib, lekin ushbu meva-sabzavotlarning 1,5 million tonnasi eksport qilinmoqda. Bunga tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan mahsylot etishtirilmayotganligi, bog‘ va tokzorlarda hosildorligining pastligi sabab qilib ko‘rsatilmoqda. Masalan, xorijiy davlatlarda bir gektar intensiv bog‘dan 70-100 tonna, ayrim mevalardan 130 tonnagacha hosil olinsa, O‘zbekistonda bir gektardan 10-30 tonna, an’anaviy bog‘-tokzorlarda esa 4-5 tonna mahsylot olinadi. Yana shuni aytish lozimki, qishloq xo‘jaligi sohasida mahsylotni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha 31 ta agrologistika markazi tashkil etilgan bo‘lib, ularni to‘xtovsiz ishlashi uchun muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi natijalarga erishish maqsadida, mahsulot ishlab chiqaruvchi bilan eksportyor o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida meva-sabzavotchilik va uzumchilikda klaster tizimini joriy qilish va ularni rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. SHuni aytish lozimki, mamlakatimiz bo‘yicha jami 41 ta meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi birlashmali tashkil etilib, 2021 yilda esa 100 ta qishloq xo‘jaligi birlashmali tashkil etilishi choralar ko‘rilmoxda. 2022 yilda esa, mamlakatimizda yana 44 ta meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish va ular faoliyatini yo‘lga qo‘yish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi asosiy vazifamizdir.

Shu bilan birga mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida butun dunyo tajribasida o‘zini oqlagan yangi tizim – klaster tizimini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Hozirda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublika bo‘yicha meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan jami 47 ta klaster tashkil etilib, ularga 13,5 ming gektar er maydoni ajratib berilgan. Klasterlar ixtiyorida 15,9 ming tonna sig‘imidagi muzlatkich omborxonalar, 7810 tonna saralash, 800 tonna kalibrash, 4 ta zamonaviy laboratoriya, 119,8 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, 23201 tonna meva-sabzavotni saralab-qadoqlash sexlari mavjud bo‘lib, 1046 doimiy, 1085 ta mavsumiy ish o‘rni tashkil etilgan. Meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlanishida mahsylot etishtirishning ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash, mahsylotni qayta ishlash va saqlashning zamonaviy ysyollarini joriy qilish bygyngi kynda oziq-ovqat tanqisligini oldini olish imkonini yaratadi. Sohada ko‘p yillik tajribaga ega, mahsylotlarni saqlash va qayta ishlash infratzizilmasi bor tadbirdorlarni bynga jalb qilish yaxshi samara bermoqda.

Klasterlar - innovatsion texnologiyalar va bir-biriga yaqin texnologik aloqalarga asoslanadi. Klasterlarni tashkiliy shaklini mezonlari sifatida quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- birinchidan, tizimlilik, munosabatlarning mavjudligi va o‘zaro aloqalarni kuchliligi (zaif, o‘rtalik, kuchli va juda kuchli);
- ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi, foydalanish va yaqin texnologik aloqalarning bo‘lishi;
- uchinchidan, klasterlar o‘z-o‘zini boshqaradigan va asosan o‘z-o‘zini tashkil qiladigan iqtisodiy shakldir.

Shu bilan birga, klasterlarda o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini-o‘zi tashkil etish muayyan iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Ushbu manfaatlarning mazmuni, asosan, innovatsion texnologiyalar va ulardagi texnologik aloqalar bilan belgilanadi. Klasterlar, bu muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan zanjirli asosga ega faoliyat amalga oshirilib, klasterlarga birlashish, klaster sub’ektlari uchun ham, hududiy va milliy iqtisodiyot uchun qulayliklar yaratadi va foyda beradi. Jumladan, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish hamda respublikamizda meva-sabzavot tarmoqlarini rivojlantirish uchun qabul qilingan me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish, meva-sabzavotchilik klasterini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, hududlar tabiiy-iqlim sharoitlariga mos, serhosil va eksportbop meva-sabzavot ekinlari navlarini joylashtirish, eksportga yo‘naltiriladigan xaridorgir va raqobatbardosh mahsulotlarni etishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotish jarayonlariga yangi texnologiyalarini joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, meva-sabzavot etishtirish va qayta ishslash jarayonidagi ishtiropchilarning moddiy manfaatdorligini ta’minlash jarayonlarni to‘liq qamrab oluvchi tizim sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Agar O‘zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu mahsulotlarning qariyb deyarli 70 foizi 3 ta davlatga (Qozog‘iston, Rossiya va Qirg‘izistonga), qolgan qismi 8 mamlakatga eksport qilinadi. Qaysi mamlakatlar bozori hisobiga O‘zbekiston eksport hajmini oshirishi mumkinligini, yuqorida aytilgan mamlakatlarga eksport hajmini oshirish hisobigami yoki eksport geografiyasini kengaytirish va diversifikatsiyalashni o‘rganish klaster tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Shu bilan birga meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi klasterlarni rivojlantirish va boshqarishning quyidagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi: meva-sabzavot mahsulotlari etishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotishga chuqur ixtisoslashish; meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish, qabul qilish, tozalash, saralash, quritish hamda qayta ishslashda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish; yer maydonlaridan foydalanish: ajratilgan er maydonlaridan samarali va unumli foydalanish, maydonlarga sifatli, jahon andozalariga mos eksportbop meva, uzum va sabzavot ekinlarni joylashtirish, samarasiz va istiqbolsiz qishloq xo‘jalik ekinlari o‘rniga bosqichma-bosqich meva, uzum va sabzavot ekinlari joylashtirish; meva-sabzavot etishtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ulardan mintaqqa va hududiy sharoitlarda

keng foydalanish, meva-sabzavotchilik sohasiga xorijiy mutaxassislarni jalg qilish; eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, ularning seleksiyasi va urug'chiligin klaster hududlarida o'zlashtirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; serhosil meva, uzum va sabzavot ekinlarini ekish, mahsulot etishtirish, saqlash, qayta ishslash va sotish jarayonini to'liq qamrab oluvchi tizimni shakllantirish, shuningdek zamonaviy innovatsion, resurs tejamkor texnologiyalarni meva-sabzavot mahsulotlarini etishtirish jarayonlariga joriy qilish; malakali yangi ish o'rinalarini tashkil etishdan iboratdir. Klasterlarni yuqoridaagi rivojlantirish va boshqarish bo'yicha vazifalarni to'laqonli uddalay olishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida serunum hosil va uni eksport salohiyatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

REFERENCES

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёши аҳолини ўқитиши ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери –истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришининг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.
4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК*. г.Москва, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг бекиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.
7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).

9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовошной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
12. Mannopova, M. C. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ–ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta’lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Юлдашева, Г. А., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Инновации в рамках национальных инновационных систем. *Интернаука*, (26), 6-8.
22. Abdullaeva, S. E. (2021). The urgency of attracting investment to banks. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 435-440.
23. Абдуллаева, Ш. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ. In *МИНТАҚА*

ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 506-512).

24. Абдуллаева, Ш. Э., & Жакбарова, З. С. (2020). РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 345-350).
25. Абдуллаева, Ш. Э. (2019). Современное состояние и перспективы развития банковской системы в Узбекистане. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 180-182.
26. Khakimov, D. R., Kurbanov, D., & Khalildinov, A. A. (2022). Formation of New Economic Mechanisms in the Field of Education. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 76-81.
27. Raximov, D. S. (2022). DIRECTIONS OF DIVERSIFYING INNOVATION PROCESSES IN THE INDUSTRY NETWORK. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.
28. Khakimov, D. R., Khalildinov, A. A., & Abdullaeva, S. E. (2022). THE MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF MARKET RELATIONS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 94-100.
29. Қурбонов, Д. Х. (2022). Олий таълим соҳосида бозор муносабатлари ривожланишининг асосий омиллари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 39-41.
30. Khalildinov, A. A., & Ashurov, S. S. (2022). The Importance of Rational Use of Natural Resources in the Economy and Specific Features of its Management. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 82-85.
31. Халилдинов, А. А. (2021). Иқтисодиётни рақамлаштиришда инновациялар. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 1(6), 296-301.
32. Халилдинов, А. А. (2021). Инвестиция сиёсатининг асосий йўналишлари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 146-150.
33. Хакимов, Д. Р. (2022). Олий таълим тизимида янги иқтисодий механизmlарни шакллантириш. *Biznes-эксперт*, 1(6), 34-39.
34. Халилдинов, А. А. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(2), 87-96.